



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrası mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

**AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASHDA TIBBIYOT OLIYGOHLARINING TUTGAN O‘RNI.
Sharipova N.Q.**

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali

Aholi salomatligi – har qanday jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini belgilovchi eng muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Bugungi globallashuv davrida ekologik muammolar, turmush tarzining o‘zgarishi va yuqumli hamda surunkali kasalliklarning ko‘payishi sog‘liqni saqlash tizimiga yanada yuqori talablarni qo‘ymoqda. Shu nuqtayi nazardan, tibbiyot oliygohlarining aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish, profilaktika ishlarini rivojlantirish va ilmiy yangiliklarni amaliyotga tatbiq etishdagi roli beqiyosdir.

O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolar sog‘ligini saqlash” to‘g‘risidagi qonunning 3-moddasiga asosan tibbiyot fanining amaliyot bilan birligi sababli bo‘lg‘usi shifokorlar o‘quv amaliyoti davomida aholiga tibbiy yordamlar ko‘rsatib, xalqning tibbiy ongini oshirishga hissa qo‘shishi kerak. Hozirda yurtimizda 11 ta davlat va bir qancha xususiy tibbiyot oliy ta‘lim muassasalari mavjud. Ushbu oliygohlarda talabalar 13 ta yo‘nalish bo‘yicha tahsil olmoqdalar. Talabalar ta‘lim olish davomida aholi salomatligini saqlash bo‘yicha chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan holda malakali kadr bo‘lib yetishib chiqadi.

Tibbiyot oliygohlari aholining tibbiy xizmatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun yuqori malakali shifokorlar, hamshiralar va boshqa mutaxassislarni tayyorlaydi. O‘quv jarayonida zamonaviy texnologiyalar, interaktiv usullar va amaliy mashg‘ulotlardan foydalanilishi yosh kadrlarning sifatli bilim olishiga xizmat qiladi. Oliygo‘hlar sog‘liqni saqlash tizimida mavjud muammolarni hal qilish uchun yangi diagnostika, davolash va profilaktika usullarini ishlab chiqadi. Ilmiy izlanishlar natijasida yaratilgan innovatsion g‘oyalar klinik amaliyotga joriy etilib, aholiga ko‘rsatiladigan xizmat sifatini oshiradi.

Tibbiyot oliygohlari sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, kasalliklarning oldini olish bo‘yicha keng qamrovli targ‘ibot ishlarini olib boradi. Aholi orasida gigiyena, to‘g‘ri ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish va jismoniy faollikni kuchaytirish kabi masalalarda muntazam ravishda ma‘rifiy tadbirlar tashkil etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.11.2020 yilda qabul qilingan “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi qarorga muvofiq tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida va tibbiyot texnikumlarining barcha yo‘nalishlarida aholini salomatligini saqlash maqsadida to‘g‘ri ovqatlanish bo‘yicha alohida darslar talabalarga o‘tiladi.

Talabalarining sog‘lom turmush tarzini tadbiq qilishi va uni aholiga namuna sifatida ko‘rsatishi juda muhimdir. Chunki talaba – bu nafaqat bilim oluvchi, balki kelajakda jamiyatda yetakchi bo‘lib shakllanadigan shaxsdir. Quyidagi jihatlar orqali talabalar sog‘lom turmush tarzining targ‘ibotchisi va namunasi bo‘lishi mumkin: shaxsiy amaliyot orqali namuna bo‘lish ya‘ni sog‘lom ovqatlanish tartibiga amal qilish, sport bilan muntazam shug‘ullanish, zararli odatlardan (chekish, ichkilik, gadgetlardan ortiqcha foydalanish) tiyilish. gigiyenaga e‘tibor berish. Jamiyatda faol targ‘ibot olib borish: talabalar turli aksiyalar va tadbirlar orqali aholini sog‘lom turmush tarziga jalb qilishi mumkin (masalan, “Velosiped kuni”, “Sog‘lom ovqat haftaligi”). Zamonaviy asrimizda ijtimoiy tarmoqlarda foydali kontent tarqatib, yoshlarni jalb etish orqali sog‘lom turmush tarzini tadbiq qilish. Bundan tashqari, talabalar aholiga profilaktik maslahatlar berish, sog‘lom turmush tarzi haqida ma‘ruza, seminar va treninglar o‘tkazish, turli skrining va tibbiy ko‘riklarda ko‘ngilli sifatida qatnashishi ham maqsadga muvofiqdir. Qo‘shimcha ravishda psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ya‘ni do‘stlari va atrofdagilarga sog‘lom odatlar haqida tushuntirish, stressni boshqarish usullarini targ‘ib qilish, jamoaviy sport o‘yinlari, madaniy-ma‘rifiy tadbirlar orqali sog‘lom muhit yaratish mumkin.



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

Xulosa qilib aytganda, aholi salomatligini saqlashda tibbiyot oliygohlarining o‘rni nihoyatda muhim. Ular nafaqat malakali kadrlarni tayyorlaydi, balki ilmiy izlanishlar olib borib, zamonaviy tibbiyot yutuqlarini amaliyotga tatbiq etadi va aholiga bevosita tibbiy xizmat ko‘rsatadi. Demak, tibbiyot oliygohlari – sog‘liqni saqlash tizimining ilmiy va amaliy tayanch nuqtasi bo‘lib, aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ham faol ishtirok etadi. Talabalar esa sog‘lom turmush tarzini nafaqat o‘z hayotida qo‘llashi, balki aholiga namunali qilib ko‘rsatishi orqali kelajakda jamiyatda sog‘lom avlodni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

